

SAID AHMADNING "UFQ" ROMANINI YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI

Yuldasheva F.F

*Ilmiy rahbar:**ÒzDJTU katta òqituvchisi*

Norboyeva Nilufar Zokirovna

ÒzDJTU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`sb kelayotgan yosh kelajak avlodni insonparvar, vatanparvar shaxs sifatida voyaga yetkazish haqida bahslar yuritilgan. Bundan tashqari, farzandning ota-ona oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan bajarish, farzand katta yo kichik yoshda bo`lishidan qat`i nazar, ota-onasining hurmatini, hizmatini qilish, ular bergan oq sutni oqlash, oilasiga, ota-onasiga, tug`ilib o`sgan, kindik qoni to`kilgan makon bòlmish Vataniga sadoqat ruhida tarbiyalash xususida munozarali qarashlar bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье идут рассуждения о воспитании подрастающего поколения как гуманитарной и патриотической личности. Кроме того, с честью выполнять сыновний долг ребенка перед родителями, уважать и служить родителям, независимо от того, стар ребенок или молод, оправдывать даваемое им белое молоко, семье, родителям, рожденным. Спорные взгляды на воспитание в духе о верности Родине, месту, где он вырос и где пролилась его пупочная кровь.

Annotation: In this article, there are discussions about raising the young future generation as a humanitarian and patriotic person. In addition, honorably fulfill the child's filial duty to the parents, respect and serve the parents, regardless of whether the child is old or young, justify the white milk they gave, to the family, parents, born. Controversial views on education in the spirit of loyalty to the Motherland, the place where he grew up and where his navel blood was shed, were expressed.

Kalit so`zlar: Ikkinchi jahon urushi, front va front orti, Vatan, Ikromjon, Jannat xola, Tursunboy, tarbiya.

Ключевые слова: Вторая мировая война, фронт и тыл, Родина, Икрамжон, тетя Джаннат, Турсунбой, образование.

Key words: Second World War, front and rear, Homeland, Ikramjon, Aunt Jannat, Tursunboy, education.

Said Ahmad "Ufq" romanida xalqimiz hayotining kichik, biroq mazmun-mohiyati jihatdan juda dolzarb davr aks ettirilgan. Chunki xalqimiz urush arafasidagi, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda mislsiz fidoyilik, qahramonliklar ko`rsatdi. Uzunligi 270 km bo`lgan Katta Farg`ona kanalini qo`l kuchi bilan 45 kunda qazib bitkazilishi, to`qayzorlarni o`zlashtirish, cho`llashtirish ishlari kabilar misli ko`rilmagan jasorat. Urush yillarida xalqimizning front va front ortidagi og`ir mehnati, urushdan

keying tiklanish davridagi chekkan zahmatlarining har bir kuni jasorat edi. {1,26-bet} Bu ulkan ishlarning ortida qo`li qadoq jonli odamlar, ularning mashaqqatli hayoti, orzu-armonlari bor edi. Said Ahmad xuddi shu fidoiy insonlar hayotini, kechinmalarini qalamga olgan, romanning “Hijron kunlarida” kitobida berilgan “Qochoq”deb nomlangan parcha kitobxon uchun juda ta`sirli, og`ir, aniqrog`i uni o`qish kerak emas, balki his qilib uqish darkor. Aynan ushbu parchani 8-sinf darsligida berilishi maqsadga muvofiq, o`sib kelayotgan yosh kelajak avlodni insonparvar, vatanni ulug`lash, uni asrash, ardoqlash, himoya qilishga undaguvchi vatanparvar shaxs sifatida kamol topishida turtki bo`ladi. Bundan tashqari yana bir ibratli tomoni shundaki, ota-ona oldidagi farzandlik burchining har vaqt, hamma yerda sharf bilan bajarish, farzand katta yo kichik yoshda bo`lishidan qat`i nazar, ota-onasining hurmatini, xizmatini qilish, ular bergan oq sutni halollamoq haqida ham yuksak tuyg`ular bayon etilgan.

Urush qahramoni Ikromjon Usmonov baxtiyor, yor-birodarlari oldida yuzi yorug` bo`ldi, Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlandi. Frontdan bir oyog`idan ajrab, qaytib keladi, ortidan unga berib ulgurilmagan ordeni tantanali topshirildi. Ayni paytda aytilgan qandaydir yaramas qochoq bola to`g`risidagi gapga parvo qilmadi. Qochoq bola yakka-yu yagona farzandi, ko`zini oqu qarosi bo`lgan jigarbandi Tursunboy ekanligini bilganda esa Ikromjondan baxtsiz odam yo`q edi, qishloqda qanday bosh ko`tarib yurishlikni, orden taqishga haqqi yo`qligini, odamlar yuziga qanday qarashlikni, xotiniga nima deyishlikni..., badbaxt, nobakor, xoin, qochoq bolasi shu tobda oldida bo`lsaydi, uni tilka-tilka qilib, bo`g`ib o`ldirishlikni jahil bilan o`ylardi. Ikromjon farzandidan voz kechgan, o`zini befarzand insonman deya ovuntirar, o`g`lining isnodiga chiday olmas edi, ta`lim-tarbiyadami qayerda adashganini o`ylar, ammo o`yining oxiri yo`q. Jannat xola ham yakka-yu yagona o`g`lini Vatan himoyasiga jo`natganidan xursand edi. ”O`g`limiz jang qilib, xalqimizni ozod, yurtimizni obod qiladi”deb orzu qilgan edi. Ammo, ammo... Ota –ona orzusi havodek uchib ketdi. Orzulari og`zida qoldi.

Tursunboy urush qiyinchiliklariga dosh berolmay qochib ketdi, so`ngra qishloq chetidagi to`qayzorlarda berkinib yotdi. Buni mushtipar onadan boshqa hech kim bilmas edi. Bechora ona! Har kuni o`y-xayoli, hayoti to`qayzorda bo`lib qoldi. Otasidan yashirib ovqat tashir, boshqalar bilib qolishidan juda qo`rqar edi. Vijdon azobidan qiynalgan Jannat xola xastalanib, yotib qoldi. Xasta xolida ham o`g`lidan xabar olishni to`xtatmas edi, o`g`liga sog`ligi yomonligini aytsa u beparvo edi, qo`lidan ovqatni olib hayvonlarcha yeyar edi. Tursunboy faqat o`zini, qornini o`ylardi. To`qayzorlar orasida Tursunboy mahalla-ko`y, qarindosh-urug` tobut ko`tarib borar, tobut boshida esa boshi egik ota shunda yuragi sezib turibdi. Tobut ichidagi mushfiqqina onasi Jannat xola edi. Qochoqni yuragini g`am-alam bosdi, chunki shunda u “Endi menga kim ovqat olib keladi?” deya alam chekdi. O`shanda ham o`zini o`yladi, onaizorga ozgina bo`lsa ham achinmadi.

Nahotki, onasini so`nggi tuproqqa qo`yishga yaramasa, axir u farzand-ku, odam bolasi-ku! Yo`q, yo`q u odam bolasi emas, odam bolasi deya olmayman. Tursunboyni jonsiz, yuraksiz, vijdotsiz, zabonsiz, dilsiz, o`zidan badbo`y xid taratib, atrofdagilarni dilini, ko`nglini behuzur qilayotgan ko`lga o`xshataman.

Ustoz adib Abdulla Qahhor yozuvchining ushbu asardagi mahoratini shunday ta`riflaydi: "Bu kitobni ("Ufq" romanini) kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo`g`ilmasdan o`qib chiqadi. Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg`usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g`azabi, og`zidan chiqadigan har bir so`zi rost..." Darhaqiqat, ushbu asar "odamga quvvat beradigan umid, uning boshini "toshdan" qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir". {2,92-bet} Ushbu roman uchun bundan-da yuksak baho bo`lmasa kerak.

Mana shunday dorilomon zamonda, serquyosh o`lkada, mustaqil yurtda yashashimiz uchun yurt ozodligini barcha narsadan ustun bilgan xalqning asl farzandlari kurash olib bordi. Achchiq alamlar bilan faryod chekkan onajonlarning ko`zyoshlari uchun va buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari uchun ham Vatanimiz mustaqilligini ko`z qorachig`imizdek asrashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. S. Ahmad. "Ufq". – T.: "Sharq". 2006. – 26-bet.
2. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo`chqorov. O`zbek adabiyoti. 8-sinf uchun darslik majmua. – T. 2019. – 92-bet.